

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2026-yilning yanvar-iyun oylarida Jizzax viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 29 694,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2025-yilning yanvar-iyun oylari bilan taqqoslaganda 8,6 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2025-yilning yanvar-iyun oylari narxlariga nisbatan 109,1 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Jizzax viloyatining qo'shgan hissasi 2,8 % ni tashkil etdi.

## 2026- yilning yanvar-iyunoylarida Jizzax viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



## 2026- yilning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



|                                                        | Mlrd. so'm      |                 | O'sish<br>sur'atlari,<br>o'tgan yilning<br>mos davriga<br>nisbatan % da |
|--------------------------------------------------------|-----------------|-----------------|-------------------------------------------------------------------------|
|                                                        | 2025- yil       | 2026- yil       |                                                                         |
| <b>I. YAHM, jami</b>                                   | <b>25 075,3</b> | <b>29 694,6</b> | <b>108,6</b>                                                            |
| <i>shu jumladan:</i>                                   |                 |                 |                                                                         |
| tarmoqlarning yalpi<br>qo'shilgan qiymati              | 24 649,9        | 29 071,7        | 108,4                                                                   |
| mahsulotlarga sof soliqlar                             | 425,4           | 622,9           | 115,3                                                                   |
| <b>II. Tarmoqlarning yalpi<br/>qo'shilgan qiymati</b>  | <b>24 649,9</b> | <b>29 071,7</b> | <b>108,4</b>                                                            |
| <b>qishloq, o'rmon<br/>va baliqchilik xo'jaligi</b>    | <b>9 303,7</b>  | <b>10 631,0</b> | <b>105,5</b>                                                            |
| <b>sanoat<br/>(qurilishni qo'shgan holda)</b>          | <b>5 829,6</b>  | <b>7 346,8</b>  | <b>114,5</b>                                                            |
| sanoat                                                 | 4 218,9         | 5 351,7         | 112,3                                                                   |
| qurilish                                               | 1 610,7         | 1 995,1         | 120,2                                                                   |
| <b>xizmatlar</b>                                       | <b>9 516,6</b>  | <b>11 093,9</b> | <b>107,6</b>                                                            |
| savdo, yashash va<br>ovqatlanish<br>bo'yicha xizmatlar | 3 433,7         | 3 996,9         | 109,8                                                                   |
| tashish va saqlash,<br>axborot va aloqa                | 1 077,4         | 1 362,0         | 122,6                                                                   |
| boshqa xizmat tarmoqlari                               | 5 005,5         | 5 735,0         | 102,9                                                                   |

Quyida keltirilgan infografikada ko‘rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 18 878,1 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 6,6 % ga yuqoridir.

**2026- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi**  
*(ming so‘mda)*



**2026- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o‘shish sur‘atlari**  
*(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)*



## Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

|                                                       | 2025- yil    | 2026- yil    |
|-------------------------------------------------------|--------------|--------------|
| <b>I. YAHM, jami</b>                                  | <b>100,0</b> | <b>100,0</b> |
| <i>shu jumladan:</i>                                  |              |              |
| tarmoqlarning yalpi<br>qo'shilgan qiymati             | 98,3         | 97,9         |
| mahsulotlarga sof soliqlar                            | 1,7          | 2,1          |
| <b>II. Tarmoqlarning yalpi<br/>qo'shilgan qiymati</b> | <b>100,0</b> | <b>100,0</b> |
| <b>qishloq, o'rmon<br/>va baliqchilik xo'jaligi</b>   | <b>37,7</b>  | <b>36,6</b>  |
| <b>sanoat<br/>(qurilishni qo'shgan holda)</b>         | <b>23,6</b>  | <b>25,3</b>  |
| sanoat                                                | 17,1         | 18,4         |
| qurilish                                              | 6,5          | 6,9          |
| <b>xizmatlar</b>                                      | <b>38,7</b>  | <b>38,1</b>  |
| savdo, yashash va ovqatlanish<br>bo'yicha xizmatlar   | 13,9         | 13,7         |
| tashish va saqlash,<br>axborot va aloqa               | 4,4          | 4,7          |
| boshqa xizmat tarmoqlari                              | 20,4         | 19,7         |




2026- yilning yanvar-iyun oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,9 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,1 % ini tashkil etdi.


Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 36,6 % ni, sanoat tarmog'i 18,4 % ni, qurilish 6,9 % ni va xizmatlar sohasi 38,1 % ni tashkil qildi.

## Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2025- yil



2026- yil



● Yalpi qo'shilgan qiymat


● Mahsulotlarga sof soliqlar



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 2,0 f.p. (2025- yilning yanvar-iyunida – 1,1 f.p.), sanoat tarmog'i – 2,1 f.p. (2,3 f.p.), qurilish tarmog'i – 1,3 f.p. (1,4 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 2,9 f.p. (2,8 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning qo'shgan hissasi YAHM 0,3 f.p. ni tashkil qilib, o'tgan yil yilning mos davriga nisbatan o'zgarishsiz qoldi.

## 2026- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2026- yilning yanvar-iyun oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 105,5 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 36,6 %), sanoatda – 112,3 % (18,4 %), qurilishda – 120,2 % (6,9 %), xizmatlar sohasida – 107,6 % ni (38,1 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 109,8 % (13,7 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 122,6 % (4,7 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,9 % ni (19,7 %) tashkil qildi.

## Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2025- y.

2026- y.



7,9 %

**YAHM**

8,6 %



3,5 %

**Qishloq, o'rmon  
va baliqchilik xo'jaligi**

5,5 %



12,1 %

**Sanoat**

12,3 %



19,7 %

**Qurilish**

20,2 %



7,1 %


**Xizmatlar**

7,6 %



2026- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM deflyatori indeksi 2025- yilning yanvar-iyun oylaridagi narxlarga nisbatan 109,1 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoat – 113,0 %, xizmatlar hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohalarida – 108,3 % dan qayd etildi.

## Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)





2026- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik 20 893,2 mlrd. soʻmni tashkil etdi (2025- yilning yanvar-iyun oylarida – 17 923,1 mlrd. soʻm). YAHMdagi ulushi 71,9 % ni (2025- yilning yanvar-iyun oylarida – 72,7 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining oʻtgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oʻsishi bilan bogʻliq.

## Yanvar-iyun oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

